



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG'I

20 25 y. " 04 " fevral

N^o 01-10/19

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-oktabrdagi "Idoralararo kollegial organlar faoliyatini tubdan takomillashtirish hamda ularning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-168-son Farmoni ijrosini ta'minlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-oktabrdagi "Idoralararo kollegial organlar faoliyatini tubdan takomillashtirish hamda ularning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-168-son Farmoni 5-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Farmonga muvofiq ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlaridan tashqari boshqa budget tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga (yoki xorijiy mamlakatlarda ularga tenglashtirilgan darajalarga) ega bo'lgan xodimlarga qonunchilikda belgilangan har oylik qo'shimcha ustama miqdori fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga (yoki xorijiy mamlakatlarda ularga tenglashtirilgan darajalarga) ega bo'lgan xodimlar uchun lavozim maoshining 5 foizi hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga (yoki xorijiy mamlakatlarda unga tenglashtirilgan darajaga) ega bo'lgan xodimlar uchun lavozim maoshining 10 foizi miqdorida qayta belgilanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yoshlar ishlari agentligi:

Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (S.Xamdamov)ga Agentlik markaziy apparati xodimlari fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga (yoki xorijiy mamlakatlarda ularga tenglashtirilgan darajalarga) ega bo'lganda ularga har oylik qo'shimcha ustama belgilash haqidagi buyruqlarni imzoga kiritish;

hududiy bo'linmalari boshliqlariga xodimlari fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga (yoki xorijiy mamlakatlarda ularga

tenglashtirilgan darajalarga) ega bo'lganda ularga har oylik qo'shimcha ustama belgilash va to'lab borish vazifalari yuklansin.

3. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish direktorning birinchi o'rinbosari D.Kattaxanova zimmasiga yuklatilsin.

Direktor



A. Sa'dullayev



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

2024 yil « 25 » октябрь

№ ПФ–168

Идоралараро коллегиял органлар фаолиятини тубдан такомиллаштириш ҳамда уларнинг самарали фаолият кўрсатишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида

Идоралараро коллегиял органлар фаолияти самарадорлигини ошириш ва такомиллаштириш, шунингдек, уларнинг фаолияти устидан таъсирчан назорат ўрнатиш ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 28 февралдаги ПФ–27-сон Фармони билан тасдиқланган 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили” да амалга оширишга оид давлат дастури ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида” ги ПФ–158-сон Фармонида белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида:

1. Қуйидагилар:

Раҳбарлари қайта тақсимланаётган идоралараро коллегиял органлар рўйхати 1-иловага мувофиқ;

2024 йил 1 ноябрдан бошлаб тугатилаётган идоралараро коллегиял органлар рўйхати 2-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга кўра:

идоралараро коллегиял органлар республикада шаклига кўра доимий фаолият юритувчи (Республика комиссияси, кенгаш, қўмита) ва вақтинча фаолият юритувчи (ишчи гуруҳ, ишчи комиссия) идоралараро коллегиял органлар сифатида ташкил этилади;

идоралараро коллегиял органларни ташкил этиш тўғрисидаги ҳужжатларда уларнинг фаолиятини ташкил этиш ва қарорлар ижросини назорат қилиш бўйича ишчи орган белгиланади;

вақтинча фаолият юритувчи идоралараро коллегиял органларни ташкил этиш тўғрисидаги ҳужжатларда уларнинг фаолият муддати, амалга ошириладиган тадбирлар механизми аниқ кўрсатилади, муддат якунланганидан сўнг тегишли идоралараро коллегиял орган тугатилган ҳисобланади ва бу бўйича алоҳида ҳужжат қабул қилиниши талаб этилмайди;

ишчи орган қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ, идоралараро коллегиял органларнинг фаолияти тўғрисидаги ахборотни (тадбиркорлик фаолияти, фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига ҳамда атроф-муҳитга таъсир кўрсатувчи масалалар) ўз расмий веб-сайтида жойлаштириш ва янгилаб бориш йўли билан уларнинг фаолиятини оммавий ахборот воситаларида ёритиш чораларини кўради.

3. Республика ижро этувчи ҳокимият органлари ва уларнинг ҳудудий бўлинмалари, шунингдек, маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларига юкланган вазифаларнинг тўлиқ ҳажмда ва сифатли бажарилишини таъминлаш мақсадида:

идоралараро коллегиял органлар таркибига тегишли соҳага алоқадор бўлмаган аъзоларни киритиш;

идоралараро коллегиял органлар аъзоларига уларнинг фаолиятига бевосита боғлиқ бўлмаган вазифаларни юклаш қатъиян тақиқланади.

4. Белгилансинки, Адлия вазирлиги **2024 йил 1 ноябрдан бошлаб** республика даражасида фаолият юритаётган идоралараро коллегиял органларнинг реестри “Давлат функциялари” автоматлаштирилган онлайн ахборот тизими орқали юритилишини йўлга қўяди ва мазкур реестрни доимий янгилаб боради ҳамда унинг назоратини таъминлайди.

5. Илм-фан ва таълим соҳасидаги давлат ташкилотларидан ташқари бошқа бюджет ташкилотларида фаолият юритаётган фан номзоди, фалсафа доктори (PhD) ёки фан доктори (DSc) илмий даражасига (ёки хорижий мамлакатларда уларга тенглаштирилган даражаларга) эга бўлган ходимларга қонунчиликда белгиланган ҳар ойлик қўшимча устама миқдори фан номзоди, фалсафа доктори (PhD) илмий даражасига (ёки хорижий мамлакатларда уларга тенглаштирилган даражаларга) эга бўлган ходимлар учун лавозим маошининг 5 фоизи ҳамда фан доктори (DSc) илмий даражасига (ёки хорижий мамлакатларда унга тенглаштирилган даражага) эга бўлган ходимлар учун лавозим маошининг 10 фоизи миқдорида қайта белгилансин.

6. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари **уч ой муддатда** жойлардаги идоралараро коллегиял органларни ушбу Фармонга **1** ва **2-иловаларга** мувофиқлаштириш чораларини кўрсин.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига **3-иловага** мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ва Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим ҳужжатлари **4-иловага** мувофиқ ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

9. Адлия вазирлиги **икки ой муддатда** қонунчиликка ушбу Фармондан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар киритишни назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

10. Мазкур Фармоннинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси
Президенти**



Ш. Мирзиёев

Тошкент шаҳри